

QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrası dotsenti

Mavlonova Surayyo Xasan qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-geografik xususiyatlar tahlil qilingan holda, uning tabiiy iqlim sharoitlari, yer resurslari, suv ta’minoti tizimining qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga ko‘rsatgan ta’siri natijasida yuzaga kelgan muammolar ham yoritib berilgan. Masalan, g‘allachilik, paxtachilik, sug‘orma dehqonchilik va chorvachilikning iqtisodiy samaradorligi shuningdek salohiyatiga alohida e’tibor berilgan. Bundan tashqari ushbu maqolada statistik ma’lumotlardan foydalangan holda o‘shish dinamikasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, qishloq xo‘jaligi, don yetishtirish, paxta, chorvachilik, yer resurslari, suv ta’minoti, suv ombori, iqtisodiyot.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ КАШКАДАРЬСКОГО РЕГИОНА

Навотова Дилноза Иброгимовна
Шахрисабзский государственный педагогический институт
доцент кафедры географии

Мавлонова Surayyo Хасановна
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Студент 1 курса магистратуры по
Методы преподавания естественных и точных наук (география)

Аннотация: В этой статье анализируются экономические и географические особенности, влияющие на развитие сельского хозяйства Кашкадарьского региона, а также проблемы, возникающие в результате его влияния на природные климатические условия, земельные ресурсы, системы водоснабжения на сельскохозяйственные сети. Например, особое внимание уделяется экономической эффективности и потенциалу выращивания зерна, хлопка, орошения, сельского хозяйства и животноводства. Кроме того, в этой

статье анализируется динамика роста при использовании статистических данных.

Ключевые слова: Кашкадарья, сельское хозяйство, земледелие, выращивание зерна, хлопок, животноводство, земельные ресурсы, водоснабжение, водохранилище, экономика.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE AGRICULTURAL DEVELOPMENT OF THE KHASHKHADARYA REGION

Navotova Dilnoza Ibrogimovna
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Geography.

Mavlonova Surayyo Khasanovna
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Methods of teaching natural and exact sciences (geography)
Specialty 1st year master

Abstract: This article analyzes the economic and geographical features affecting the agricultural development of the Kashkadarya region, as well as the problems that arise as a result of its impact of natural climatic conditions, land resources, water supply system on agricultural networks. For example, special attention is paid to the cost-effectiveness as well as potential of grain growing, cotton-growing, irrigation, farming and livestock. In addition, this article analyzes the dynamics of growth when using statistical data.

Keywords: Kashkadarya, agriculture, grain cultivation, cotton, livestock, land resources, water supply, reservoir, economy.

Qashqadaryo viloyatining relyefi bir muncha murakkab tuzilgan bo'lib o'z ichiga tog' va tekisliklar, botig' va adirlarni oladi. Asosan Qashqadaryo botig'ida joylashgan bo'lib, shimoli-sharq va janubi-sharqda Zarafshon hamda Hisor tog'lari bilan o'ralgan. Tekislikning katta qismi g'arbida Qarshi cho'lidan iborat. U Sandikli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan. Viloyat relyefining turli-tumanligi bu yerda tabiiy boyliklarni mavjudligini va turli xil iqlim sharoitining shakllanishini ko'rsatib beradi. Iqlimi kontinental bo'lib, yog'in-sochin miqdori ayniqsa cho'l mintaqasida juda kam miqdorni tashkil qiladi. Shuning uchun bu yerda dehqonchilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya shahobchalarini barpo etish talab qilinadi. Tog'oldi va tog' mintaqasida yillik yog'in miqdori ancha yuqori bo'lib ba'zi vaqtlarda 800-900 mm ga ham yetadi. Viloyat hududi Qashqadaryo havzasida joylashgan bo'lib ba'zi daryolar qo'shiladi. Xususan, Jinnidaryo, Oqsuv, Tanhozdaryo, Ayoqchidaryo, Qizildaryo va boshqa kichik irmoqlar kelib qo'shiladi. Hozirgi kunda iqlim quruqlashishi tufayli, yoz boshlanishidan to'kech

kuzgacha Ayoqchidaryo suv bermaydi. Buning ustiga daryoning quyi qismida suv borgan sari kamayib bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo hozirgi kunda Qarshi-Koson atrofida batamom tugab qoladi.


Qashqadaryo viloyatining umumiy maydoni 28,6 ming kv.km bo'lib, uning yer maydoni 2856,8 gektarni tashkil qiladi, shundan 2143,3 ming gektari qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar bo'lib, 417,2 ming gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Shuningdek, 253,2 ming gektar lalmikor yer qishloq xo'jaligi ekinlari uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlarga ko'ra respublikamizdagi lalmikor yerlarning 33% Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Qashqadaryo vohasida barcha turdagi antropogen landshaftlar mavjud bo'lib qadimiy aholi manzilgohlari, obikor va lalmikor dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan selitob va agrolandshaftlar keng tarqalgan. Qashqadaryoda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida 70-yillardan boshlab Qarshi dashti keng o'zlashtirilgan. Hozirgi vaqtga kelib viloyat hududida qator suv inshootlari barpo etilgan. Masalan, Hisorak, Qalqama, Chimqo'rg'on, Qamashi suv omborlari mavjud bo'lib, ular asosan dehqonchilikda foydalaniladi. Xususan, G'uzor tumanini Pachkamar suv ombori va G'uzordaryo suv bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, yirik Qarshi magistral kanali viloyat sug'orma dehqonchiligida katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, bu hududda qator zovurlar va to'planib qolgan oqova, sho'r suvlardan tashkil topgan tuz ko'llar ham mavjud. Bunday holatlar ko'proq Qarshi dashtida vujudga keladi. Bundan tashqari, bu yerdagi mavjud suv omborlari bir tomondan dehqonchilikni rivojlantirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan zovur va su'niy ko'llar agroekologiyaning buzilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan ekinlarni intensiv yo'l bilan sug'orish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda artezian quduqlarning soni oshirilishi natijasida sug'orma dehqonchilik ham muntazam rivojlanib bormoqda. Viloyatdagi suv havzalarining sanoat, kommunal xo'jalik, sog'lomlashtirish va qishloq xo'jaligi korxonalarining iflos chiqindi va oqova suvlari bilan ifloslanish darajasi ancha yuqori ya'ni chiqindi va suvlarni tozalovchi inshootlar yetarli emas. Shuningdek, bu yerda bor inshootlar ham yetarli darajada ishlamaydi. Shuning uchun suv havzalarini ifloslanishidan saqlovchi barcha chora-tadbirlarni ko'rish tavsiya etiladi.

Viloyat agroiklimiy sharoitlari hudud bo'yicha teng taqsimlanmaganligi uchun, asosan yuqori qismida, intensiv dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun sharoit bor. Cho'l mintaqasining katta qismidan asosan paxta, g'alla yetishtirish va chorvachilikda foydalaniladi. Viloyatimizda sug'orma dehqonchilik, lalmikor yerlardan foydalanishga qaraganda yaxshi rivojlangan. Chunki sug'oriladigan yerlardan lalmikor yerlarga qaraganda 3-4

barobar ayrim hollarda esa 5-10 barobargacha ko'p hosil olinishi haqida ma'lumotlar bor. Sug'orma dehqonchilikda Zarafshon va Amudaryo daryolarining suvidan foydalaniladi. Ulardan oqilona foydalangan holda dehqonchilikni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Viloyatimiz qishloq xo'jaligining bosh tarmog'i dehqonchilik hisoblanib, yalpi mahsulotning katta qismi uning hissasiga to'g'ri keladi. Uning asosiy tarmoqlari, paxta, don yetishtirish, meva va uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari, xashaki ekinlar hisoblanadi. Bu borada ayniqsa Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari yetakchilik qiladi.



rasm. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi

Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan olindi.

2024-yil yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nishon tumaniga (36,9%), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Dehqonobod tumaniga (94,7%), qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nishon tumaniga (16,2%) tegishli. Fermer xo'jaliklarining eng kam ulushi Shahrisabz shahrida (0,7%), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (46,9%), qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarida Chiroqchi tumani (1,4%) bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi (1-rasm).

Qashqadaryo viloyatida eng ko'p bug'doy, arpa, makkajo'xori ekiladi. Chunki lalmikor yerlarning asosiy ekin turi bug'doy va arpa hisoblanadi. 2024-yil yakuniga ko'ra viloyatimizda 893,5 ming tonna don yetishtirildi. Qashqadaryo

viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 16168,2 mlrd so'mni tashkil etgan holda, 2023-yilga nisbatan 102,9 % ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,9% ni tashkil etgan.

Ammo so'ngi 10 yillik ichida suv miqdori sezilarli darajada kamayganligi tufayli viloyatimizning qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy ko'rsatkichiga biroz salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan obikor yerlar asta-sekinlik bilan lalmikor yerlarga aylanib boryapti va yildan-yilga yerlarning katta qismi sho'rlanib yaroqsiz holga kelib qolyapti. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda, ya'ni viloyatning ba'zi hududlarida yil yakuni bo'yicha olinishi rejalashtirilgan hosil miqdori suv taqchilligi tufayli yarmiga ham yetmaganligi holatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun birinchi navbatda, suvdan tejamkorlik bilan foydalangan holda intensiv sug'orish usulini ko'paytirish kerak. Bundan tashqari, paxtani makkajo'xori bilan almashlab ekish nafaqat paxta hosilini ko'paytiradi, balki chorvachilik mollari uchun ozuqa bo'lib ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, viloyatda qishloq xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichini ko'tarish uchun, birinchi navbatda viloyatimiz iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- tomchilatib sug'orish va suvni tejovchi texnologiyalarni kengaytirish;
- qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli ekinlarga o'tish;
- sug'orish tizimlarini renovatsiya qilish, suv yo'qotishlarni kamaytirish.
- drenaj va tuproqni melioratsiya qilish orqali unumdorlikni tiklash;
- raqamli agroteknologiyalarni joriy etish.

Suv tanqisligini sezilarli kamaytirish natijasida tomchilatib sug'orish, betonlangan kanallar va smart-sug'orish tizimlari orqali suv sarfi 30–50% gacha tejaladi. Suv manbalari barqarorlashadi, qishloq xo'jaligi sug'orish suvi bo'yicha kamroq inqirozga uchraydi.

Hosildorlikning barqaror va yuqori bo'lishi Suvning aniq boshqarilishi va ekinlarning iqlimga mos navlari tufayli: paxta hosildorligi 20–40% yuqorilashi, bog'dorchilikda sifatli meva ulushi ko'payishi, sabzavot yetishtirishda hosilning yo'qotilishi kamayishi kutiladi.

Sho'rlanish darajasining pasayishi natijasida drenajni yaxshilash, yuvish sug'orishlari, organik o'g'itlar qo'llash natijasida tuproqning biologik faolligi ortadi. Sho'r yerlarning katta qismi qayta foydalanish uchun yaroqli bo'ladi.

Tuproq unumdorligining oshishi natijasida organik qoplama (mulchalash), bioo'g'itlar va to'g'ri agrotadbirlar hisobiga: tuproq namligini ushlash, eroziya va qotishmalarni kamaytirish, mikroorganizmlar faolligini oshirish mumkin. Bu esa hosilga bevosita foyda beradi.

Iqlim o'zgarishiga moslashgan agroiqtsodiy tizim natijasida qurg'oqchilik, issiq, shamol va sovuqlarga bardoshli navlarning ekilishi qishloq xo'jaligini xavfsizroq qiladi. Farmerlar hosilni nisbatan kafolatlangan holda yetishtira oladilar.

Raqamli texnologiyalar yordamida aniq boshqaruv natijasida Agrodron, IoT sensorlar yordamida fermer: kasallikni erta aniqlaydi, suvni behuda sarflamaydi, o'g'itni aniq va tejamkor beradi. Bu esa tejamkor, samarali va zamonaviy agroishlab chiqarishga olib keladi.

Mahalliy iqtisodiyotning o'sishi va daromad oshishi natijasida hosildorlikning ortishi, mahsulot ko'payishi, suv tejalishi, xarajat kamayishi, tuproq yaxshilanishi kabilar barqaror daromad kafolatidir. Natijada viloyatda: fermerlar foydasi oshadi, ish o'rinlari ko'payadi, oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi.

Agar yuqoridagi tavsiyalar to'liq tatbiq qilinsa, Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi suv tanqisligiga chidamli, yuqori hosildor, ekologik barqaror va iqtisodiy samarali tizimga aylanadi. Bu esa viloyatning uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев С.И, Назаров М.Г. Қашқадарё ховзасининг атрпоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати. Монография - Қарши, "Ҳасаф НМИУ" - 2020. 144 б.
2. Аминов Ф.Б. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг ҳудудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти мисолида) Икти.фан.ном. ... дисс Т., 2003. - 167б
3. Ахмадалиев Ю.Ю.И. Ердан фойдаланишнинг ҳудудий ташкил этишнинг социал-экологик хусусиятлари// Ўзбекистон география жамияти – Т., 2003. 23-жилд. - Б. 58-59.
4. Fayzullayev M.A. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi [Monograph]./- T"KITOB BILIM YOG'DUSI" MCHJ: 2024. - 243 b.
5. Navotova D.I. "Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari" UZZAMIN, 2023 N 2. T., 2023.
6. Nurxonov N., Xalxadjayev B. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ihsalab chiqrish jarayonini iqtisodiy-statistik tahlil qilishning zamonaviy usullari (Qashqadaryo viloyati misolida). Yashil iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2024 Vol.2 No.7. 2024
7. Navotova D.I. Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture// Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 40-44
8. Навотова Д.И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталаштиришнинг баъзи масалалари// Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №3 (94), 2022. – 721-725 с.
9. Навотова Д.И. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах// Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №4 (95), 2022. – 198-202 с.
10. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023. P.100-104
11. Навотова Д.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишни тадқиқ қилишнинг назарий-услубий жиҳатлари// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume 2 | issue 1 | Tashkent, Uzbekistan. 2022. Б. 321-327

12. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol. 2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447
13. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficient use of irrigated lands of the republic of Uzbekistan// International conference on scientific research in natural and social sciences. Canada conference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186
14. <https://www.qashstat.uz>
15. uzzamin.uz